



МУҒАЛЛИМ ХӘМ ҮЗЛІКСІЗ БИЛИМЛЕНДИРІҮ

илимий-методикалық журнал № 6/3



1-ДЕКАБРЬ ҚАРАҚАЛПАҚ ТИЛИНЕ
МӘМЛЕКЕТЛІК СТАТУС БЕРІЛГЕН КҮН

Нөкис - 2022

**2022-жыл ушын
«Муғаллим ҳәм ўзликсиз билимлендириў»
журналына жазылыў баҳасы төмендегише:**

Индекс: 2092

**Жеке пухара ушын бир жылға 90 000 сум,
алты айға - 45000 сўм**

Индекс: 2093

**Кәрханалар ушын бир жылға 100 000 сум,
алты айға - 50 000 сўм**

КК филиал УзНИИПН

р/с 20210000800538464001

КК.Отд. «ИПОТЕКА БАНК» г. Нукус

МФО 00621

ИНН: 200362233



МАЗМУН

ТИЛ ҲАМ ӘДЕБИЯТ

Shirnazarova Z.A. Xorijiy tillarni o'qitishda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish

Ishmatova O.S. Fonetik ritmika maxsus metodikalarining ritmika va logoritmikadan farqli jihatlari

ПЕДАГОГИКА, ПСИХОЛОГИЯ

Абидова Н.З. Таълимий инклюзия шароитида касбий-педагогик фаолият хусусиятлари

Yunusova X. Sh. Inklyuziv ta'lim O'zbekistonda insonparvar ta'lim shakli sifatida

Қурбанова М.Э. Органик кимё дарсларида педагогик методлардан фойдаланишни ўргатиш

Кобилова Ш.Х. Педагогик инновацион таълим кластер асосида халқ таълимида инклюзив муҳитни яратиш юзасидан ижтимоий-педагогик ёндашув

Dehqonova M .G'. Bo'lajak maxsus pedagoglarni kasbga qiziqishini oshirish yo'llari

Гаюпова С.Х. Замонавий талаба шахсини шакллантиришнинг ўзига хос жиҳатлари

Sayfullayeva I .Q. Bo'lajak logopedlarni kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning huquqiy-me'yoriy asoslari

МИЛЛИЙ ИДЕЯ ҲАМ РУЎХИЙЛИҚ ТИЙКАРЛАРИ, ТАРИЙХ, ФИЛОСОФИЯ

Abdumajitov A. Manzara janrining tasviriy san'atdagi o'rniva O'rol Tansiqboyev ijodi

Abdujalilova Sh.A. Oliy ta'lim muassasalari o'ituvchilarinig pedagogik tasavvur va uning fazilatlari

ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА, ИНФОРМАТИКА

Рузиқулович Б.Ж. Физиканинг "Механика" бўлимига оид турли типдаги ностандарт масалаларни ечиш методикасининг назарий асослари

БАСЛАЎИШ КЛАСС, МЕКТЕПКЕ ШЕКЕМГИ ТӘРБИЯ

Pulatxo'jaeva M. R. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarda nafas funksiyasini va nutqiy nafasini rivojlantirish

ФИЗИКАЛЫҚ ТӘРБИЯ ҲАМ СПОРТ

Buvorayeva G.Sh. Xotin-qizlar salomatligini mustahkamlashda jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining nazariy asoslari

Нигматуллаева Д., Рахимбердиев Ж., Қўзиева Ф. Олий таълим талаба - ёшларига кураш халқаро мусобақа қоидаларини ўргатишнинг педагогик шарт шароитлари хусусида

Nazarov A. I. Umumta'lim maktablarida voleybolchilarni tayyorlash jarayonining individual va pedagogik xususiyatlari

Shomuratov A.A. Pedagogik ta'lim tizimida talabalarning jismoniy va maxsus tayyorgarligini oshirish

Yusupov E.T. Kurash sportining rivojlanish tarixi

Abdunabiyev B. Voleybol o'yinida 13-14 yoshli o'quvchilarda texnik taktik tayyorgarlikka o'rgatishda harakatli o'yinlardan foydalanish

Абдулахатов А.Р., Рахимбердиев Ж., Нигматуллаева Д. Олий таълимда кураш фанини ўқитишнинг амалиётдаги ҳолати ва ўргатиш босқичлари

Abduraximov S.D. Gimnastikaning rivojlanishi va bola tarbiyasida tutgan o'rnini
Anorboyev B. futbol o'yini texnik-taktik harakatlarini o'rgatishning ilmiy-metodik xususiyatlari
Нигматуллаева Д., Рахимбердиев Ж., Эгамбердиева Р. Кураш фалсафаси
Sabirov A. A. Gimnastika mashqlarini o'rgatishda harakatning ketma-ketligi
Ataxanov X.K. oliy pedagogik ta'lim tizimida talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshirish
Казакон Ш.Н. Умумтаълим мактабларида мусикий гимнастикани ташкил қилиш методикаси
Хаттамов З.О. Эффективности уроков физической воспитания с использованием кластерного метода в начальных классов школах
Хусанбойев А. Н. Управление развитием физических качеств школьников возрастом в 14-15 лет на основе инновационных технологий *(на примере легкой атлетики упражнениях)*
Мирзакулов Ш. Потенциал Хатха-йоги в повышении спортивных показателей в бейсболе кураше
Сайлиева Ф.Т. Развитие динамической силовой выносливости биатлонистов 14-15 лет в подготовительном периоде

ТИЛ ХЭМ ЭДЕБИЯТ

XORIJIY TILLARNI O'QITISHDA MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH

Shirnazarova Z.A.

Chirchiq davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

Tayanch so'zlar: madaniyatlararo muloqot, chet tilini egallash umumyevropa kompetensiyalari: o'rganish, o'qitish va baholash, verbal, nonverbal, stereotip, mashq va vazifalar.

Ключевые слова: межкультурная коммуникация, общеевропейские компетенции владения иностранным языком: обучение, обучение и оценка, вербальные, невербальные, стереотипные, упражнения и задания.

Key words: intercultural communication, pan-European competencies of foreign language proficiency: teaching, learning and assessment, verbal, non-verbal, stereotypical, exercises and tasks.

Hozirgi kunda til bilishning o'zi kommunikatsiya ishtirokchilari bir -birini tushunishlari uchun yetarli bo'lmaydi. O'zaro munosabatlarning muvaffaqiyatli va samarali bo'lishi uchun nutq ishtirok etgan va ishtirok etmagan muloqotning milliy-madaniy xususiyatlari, ijtimoiy-madaniy me'yorlar, odob-axloq qoidalari, kommunikatsiyadagi ustuvor xususiyatlar hamda xushmuomalalikning milliy tizimi haqida bilimga ega bo'lish kerak bo'ladi. Shundan kelib chiqqan holda hozirgi kunda xorijiy tillarni o'qitish va o'rganish jarajonida madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini shakllantirishga katta e'tibor berilmoqda. Shu o'rinda "Madaniyatlararo muloqot" tushunchasini ko'rib chiqsak. Edit Broszinsky-Schwabe "Muloqot" tushunchasini quyidagicha izohlaydi. Muloqot ya'ni kommunikatsiya lotincha "communication" so'zidan olingan bo'lib, ma'lumot almashish yoki uzatish ma'nolarini anglatadi. Bunda ma'lumotlar turli xil (verbal, nonverbal) va turli usulda (o'g'zaki va yozma) shuningdek hozirgi kunda kompyuter texnologiyalari vositasida amalga oshiriladi. [1, 31b.] "Madaniyatlararo" tushunchasi turli madaniyatlarga mansub kishilar o'rtasidagi o'zaro uchrashuv va tushunish ma'nosida qo'llaniladi. "Madaniyatlararo muloqot" tushunchasi o'tgan asrning 50-yillarida amerikalik antropolog Edvard T. Xoll tomonidan kiritilgan. U boshqa madaniyatlar, millatlar va dinlar vakillari bilan samarali muloqot qilish uchun amerikalik diplomatlarning xatti-harakatlari va muloqot qilish usullarini ishlab chiqdi. Edvard T. Xoll ushbu sohaga xos bo'lgan ba'zi stereotiplarni buzish uchun juda ko'p ish qildi. Shunday qilib, Xoll olimlar orasida birinchi bo'lib madaniyatni o'rgatish kerak degan xulosaga keldi. O'tgan asrning 80-yillari boshlaridan madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi xorijiy tillarni o'qitishning yangi maqsadi sifatida vujudga keldi. Kommunikativ kompetensiya bilan taqqoslaganda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi rivojlantirish jarayoni keng va chuqur ahamiyat kasb etadi. Kommunikativ kompetensiyada til konstruksiyalarining nutqda to'g'ri qo'llanilishi nazarda tutilsa, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasida esa tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyatiga xos bo'lgan aniq hayotiy vaziyat, haqiqiy an'analar, mentalitet, hattoki odatlar va qarashlar, shuningdek kundalik xatti-harakatlar, nonverbal muloqot shakllari o'zlashtiriladi.

Xorijiy tillarini o'qitishning maqsadlarini rivojlantirishda turli yondashuvlar mavjud edi va ular alohida kompetensiyalarga yo'naltirilgan edi. Quyida bularni ko'rib chiqamiz.

Grammatik kompetensiya. Ushbu yondashuvda o'rganilayotgan tilning grammatik tomoni muhim sanalgan. Har bir grammatik mavzu matnlar va jumlarlar orqali o'rganilgan. Tarjima eng keng tarqalgan ish shakli edi. Asosiy e'tibor grammatikaga qaratilgani sababli, leksikaga pastroq ahamiyat berildi. Boshqa maqsadlar, masalan yodlangan grammatik strukturalarni nutqda qo'llash, tili o'rganilayotgan mamlakatning milliy va madaniy xususiyatlarini o'rganish xorijiy tillarini

o'qitish amaliyotida o'z aksini topmadi. Grammatika bir qator aloqa nuqtai nazaridan qiymatga ega bo'lmagan mashqlar va matnlar bilan mustahkamlangan.

Lingvistik kompetensiya. Grammatik yondashuv XX asrning boshlariga qadar hukmronlik qildi. XIX asrning oxirgi o'n yilligi va XX asrning ilk o'n yilligida grammatik yondashuv tanqidga uchradi. Xorijiy tillarni o'qitishning maqsadi sifatida lingvistik kompetensiya birinchi o'ringa chiqdi. Tarjima esa didaktikada ustun mavqeyini yo'qotdi. Reproduktiv ko'nikmalarni shakllantiruvchi aktiv ish turlari birinchi o'ringa chiqdi. Mashqlar quyidagi prinsipga asoslandi: Til o'rganuvchilar o'quv materiallari yordamida o'rganilayotgan til haqida ma'lum fikrlarni ayta olishi kerak. Biroq o'quv materiallari faqat bitta odamga mo'ljallangan edi, ya'ni kommunikatsiya uchun sherik etishmasdi. Bu shuni anglatardiki, garchi darslar asosiy yo'nalishi grammatikadan gapirishga o'zgartirilgan bo'lsada chet tili darslarini hali hamon kommunikativ deb bo'lmasdi. Darslarda ma'lum grammatik va leksik shakllar mashq qilinsada, bundan ko'zlangan maqsad e'tibordan chetda qoldi. Lingvistik kompetensiya tilni reallikda qo'llash bo'yicha birinchi qadam bo'lsada, aynan kontekst va mamlakatshunoslik sohalari tilni o'qitishdan ayri holda edi.

Kommunikativ kompetensiya. XX asrning 60-70 yillarida xorijiy tillarni o'qitish didaktikasiga yangicha yondashuv vujudga keldi. O'rganilayotgan til muloqot uchun katta ahamiyatga ega deb tan olindi, shuning uchun yangi yondashuv "kommunikativ yondashuv" deb nomlandi va muloqot ya'ni kommunikativ ko'nikmani shakllantirish chet tillarini o'qitishning maqsadlaridan biriga aylandi. Darslarda asosiy urg'u endi til tuzilmalari va ulardan rasmiy foydalanishga emas, balki ulardan aloqa vositasi sifatida foydalanishga qaratilgan edi. Shu narsa aniq ediki, muvaffaqiyatli muloqot va suhbatdoshni tushunish uchun tilni yolg'iz yakka holda o'rganish etarli emas edi.

Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi. O'tgan asrning 80-yillari boshlaridan madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi xorijiy tillarni o'qitishning yangi maqsadi sifatida vujudga keldi. Kommunikativ kompetensiya bilan taqqoslaganda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi rivojlantirish jarayoni keng va chuqur ahamiyat kasb etardi. Kommunikativ kompetensiyada til konstruksiyalarining nutqda to'g'ri qo'llanilishi nazarda tutilsa, madaniyatlararo muloqot kompetensiyasida esa tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyatiga xos bo'lgan aniq hayotiy vaziyat, haqiqiy an'analar, mentalitet, hattoki odatlar va qarashlar, shuningdek kundalik xatti-harakatlar, nonverbal muloqot shakllari o'zlashtiriladi. Garchi xorijiy tillarni o'qitish metodikasi va didaktikasi bilan shug'ullanuvchi olimlar 30 yildan ortiq vaqt davomida madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi bilan mashg'ul bo'lishsada hali hamon bir to'xtamga kelinmagan turli xil qarashlar mavjud. Biroq ushbu yondashuvning ikkita muhim yo'nalishini farqlash mumkin:

1. Mavzuga yo'naltirilgan yondashuv. Bu yondashuv 80-yillarda keng tarqalgan bo'lib, bunda madaniyatni o'qitish darsning asosiy yo'nalishi bo'lmog'i zarur edi. Madaniyatlararo muloqot tushunchasi bu yondashuvda til bo'yicha bilim va ko'nikmalarni mamlakatshunoslikka oid bilimlar bilan to'ldirish deb tushunildi. [2, 10b.] Bunda darslar uchun materiallarni tanlashda ularning aynan o'rganilayotgan til egalari madaniyati haqida ma'lumot berishi muhim hisoblandi. Bu yondashuvda butunlay kommunikativ yondashuv an'analari davom ettirildi, bunda kommunikativ kompetensiya mamlakatshunoslikka urg'u berilgan maqsad sifatida tushunildi.

2. O'quvchiga yo'naltirilgan yondashuv. Bu yondashuvda biz xorijiy til darslarini ikki madaniy olam uchrashadigan joy sifatida tushunamiz. Dars jarayonida til o'rganuvchi o'z va o'zga madaniyati o'rtasidagi farq va o'xshashliklarni taqqoslash orqali anglashi muhim hisoblanadi. Bunda faqatgina mamlakatshunoslikka oid bilimlar bilan cheklanib qolinmaydi. Aksincha ikki madaniyat o'rtasidagi farq va o'xshashliklarni anglash, tili o'rganilayotgan mamlakat vakillari bilan uchrashganda o'zlarini tutishga imkon beruvchi mavzu va materiallarga e'tibor qaratiladi.

Biz yuqorida ko'rib chiqqan kompetensiyalar (grammatik, lingvistik, kommunikativ va madaniyatlararo muloqot kompetensiyalari) xorijiy tillarni o'qitish maqsadlari bilan uzviy bog'liq ekanligini ko'ramiz.

“Chet tilini egallash umumyevropa kompetensiyalari: o’rganish, o’qitish va baholash” to’g’risidagi umume’tirof etilgan xalqaro me’yorlarida Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi quyidagi ko’nikmalarni o’z ichiga oladi: [3,105 b.]

- o’z va o’zga madaniyatni bir-biri bilan bog’lay olish qobiliyati
- madaniy sezgirlik va boshqa madaniyat vakillari bilan muloqot qilish uchun turli strategiyalarni aniqlash va ulardan foydalana olish qobiliyati
- o’z madaniyati va chet el madaniyati o’rtasida madaniy vositachi sifatida xarakat qilish va madaniyatlararo tushunmovchiliklar va ziddiyatli vaziyatlarni samarali hal qilish qobiliyati
- stereotipik munosabatlarni yengish qobiliyati

Yuqoridagi ko’nikmlarni shakllantirish uchun xorijiy tillarni o’qitishda, ya’ni chet tili darslarida quyidagi mashq va vazifalar turlari tavsiya etiladi. .[4,78b.]

Tushunchalarni shakllantiruvchi va ma’noni rivojlantiruvchi mashq va vazifalar:

- Rasmlar bilan ishlash (Assotsiogramm)
- Rasmlar yoki filmlardan parchalarni batafsil tavsiflash
- Rasmlari hikoyalar yoki filmlar davomi uchun gipotezalarni shakllantirish
- Bir hikoyani turli nuqtai-nazardan aytib berish
- Bilim va tajibalarni kengaytirish maqsadida o’zga madaniyat haqida diskussiya-munozaralar
- “Tipik nemis xarakteri” mavzusida sahna ko’rinishi (Boshqalar uning qaysi xarakter ekanligini taxmin qilishadi)

Madaniyatlararo muloqotda kommunikativlikni rivojlantiruvchi mashq va vazifalar:

- Adabiy matnlar yoki filmlardagi kundalik vaziyatlar, qarama-qarshiliklar tahlili
- Reklamalardagi madaniyatga xos qadriyatlarni tahlil qilish
- Internetdagi kundalik hayotning jihatlari haqida, agar iloji bo’lsa til egalari ishtirokida
- Rolli o’yinlar, bunda o’rganuvchilar mumkin bo’lgan xatti-xarakatlarning madaniy jihatdan eng mos va ma’qulini tanlashi kerak
- Madaniyatlararo muloqotda tushunmovchiliklarga olib keluvchi ideomalarni to’plash va muhokama qilish

Xorijiy tillarni o’qitishda o’rganuvchilarning globallashuv jarayoni mohiyatini anglashi va o’zga madaniyat vakillari bilan samarali muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishlari uchun xorijiy til darslarida muhit yaratilishi va qo’yilgan maqsad ham shularni nazarda tutmog’i lozim.

Adabiyotlar:

1. E. Broszinsky-Schwabe, Interkulturelle Kommunikation Springer Fachmedien Wiesbaden GmbH 2017
2. Eckerth und Wendt Brauchen wir einen inter- und/oder transkulturellen Fremdsprachenunterricht? 2003,S. 10
3. Gemeinsamer europäischer Referenzrahmen für Sprachen: lernen, lehren, beurteilen. Begleitband 2001
4. Bachmann, S., Gerhold S., Wessling G. Aufgaben und Übungstypologie zum interkulturellen Lernen mit Beispielen aus Sichtwechsel-neu, in Zielsprache Deutsch 27(2) 1996, S. 77-91

PE3IOME

Biron xorijiy tilni o’zlashtirish uchun tilning lug’at boyligi, grammatika va talaffuz qoidalarini o’rganish talab etiladi. Ammo aynan shu xorijiy til egalari bilan muvaffaqiyatli muloqotni amalga oshirish uchun yuqorida sanab o’tilgan bilimlar yetarli emas,bunda muloqot qila olish ko’nikmasi shakllanganligi,xususan muloqotda qanday qoidalar mavjudligini anglash lozim. Xorijiy tilni o’rganishda til materiallari bilan birgalikda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi ham o’zlashtirilishi kerak.